

## 2018 yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

Sanoat tarmoqlarini isloq qilish, tarkibiy o`zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy texnika bazasini mustahkamlanishi natijasida viloyat sanoat ishlab chiqarishining kengaytirilishiga zamin yaratdi.


2018 yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha jami **679984,1** mln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilb, o'sish sur'ati 2017 yil yanvar-mart oylariga nisbatan **143,3 foizni** tashkil etdi.


Bu tarmoqlar bo'yicha tahlil qilinganda, 2018 yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – **362,5%**ni, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar – **222,0%**ni, Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – **160,1%**ni, Ko'mir va lignit qazib olish – **153,2%**ni, Foydali qazilmalarini qazib olish sohasidagi xizmatlar – **140,0%**ni, Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – **122,6%**ni, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoatining boshqa foydali qazilmalarini qazib olish mahsulotlari – **123,9%**ni, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – **124,1%**ni, Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish – **112,6%**ni, tashkil etdi.

Shuningdek, 2018 yil yanvar-mart oylarida, Xom neft va tabiiy gaz qazib olish (2017 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 95,2%), Kiyim ishlab chiqarish (95,4%), Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish (95,8%), Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish (82,5%)da esa kamayish kuzatilgan.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida tarmoqlar bo'yicha o'sish sur'ati Tog'-kon sanoati **9,7 foizni**, Qayta ishslash sanoati **81,2 foizni**, Elektr ta'minoti, gaz, bug' etkazib berish va sun'iy iqlim xosil qilish sanoati **7,7 foizni** hamda Suv ta'minoti, oqava suv, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **1,4 foizni** tashkil etmoqda.

### **Iqtisodiyot faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish** (yanvar-mart oylarida hajmga nisbatan foiz hisobida)






## 2018 yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi


Shuni ta`kidlash lozimki, 2018 yil yanvar-mart oylarida viloyatimizning jami sanoat ishlab chiqarilishi hajmida asosan Termiz shahri (14,9%), Jarqo'rg'on (20,0%) hamda Denov (15,3%) tumanlarining ulushi yuqori bo`lib, juda katta bo`lmagan ulushi esa Oltinsoy (2,3%), Termiz (2,5%), Uzun (3,5%), Muzrabot (2,6 %) va Sherobod (4,5%) tumanlariga to`g`ri kelmoqda.


### 2018 yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida jami sanoat ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlarning ulushi (%)



2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishning aholi jon boshiga yuqori hajmi Termiz shahri (704,6 ming so`m), Jarqo'rg'on (650,3 ming so`m), Sho'rchi (367,9 ming so`m) tumanlariga to`g`ri keladi. Aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarishning eng past hajmi esa Boysun (91,9 ming so`m), Oltinsoy (93,2 ming so`m), Muzrabot (130,7 ming so`m) tumanlarida kuzatilmogda.

### 2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so`m






## 2018 yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 2017 yil yanvar-mart oylariga nisbatan **103,3 foizni** tashkil etdi. Bunda, oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **68,8 foizni**, nooziq-ovqat mahsulotlarinin ulushi **27,1 foizni** va vino-aroq mahsulotlarining ulushi **4,1 foizni** tashkil qildi.

### **Yanvar-mart oylarida jami iste`mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi** (*jami istemol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda*)




Hududlar kesimida, iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`sishi Termiz shahri (2017 yil yanvar-mart oylariga nisbatan o`sish sur`ati – 102,4%) va Sherobod (141,6%), Sho'rchi (106,1%) tumanlariga eng past o`sishi esa Sariosiyo (95,9%), Uzun (97,4%), Jarqo'rg'on (95,3%) tumanlarida kuzatilmoqda.

### **Yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida jami iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlarning ulushi (%)**




2018 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning aholi jon boshiga yuqori hajmi Termiz shahriga (147,2 ming so`m), Denov (122,4 ming so`m), Sho'rchi (138,9 ming so`m) va Angor (109,4 ming so`m) tumanlariga to`g`ri keladi.



## 2018 yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

### Yanvar-mart oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga iste`mol tovarlari ishlab chiqarish (ming so`m)





### Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta`siri.

Xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini har taraflama qo`llab-quvvatlash va rag`batlantirish, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda kichik biznes sub`ektlari hissasining o'sishida namoyon bo`ldi. Viloyatda 2018 yil yanvar-mart oylarida sanoat umumiylajmi hajmida kichik tadbirkorlik mahsulotlarining ulushi 32,5%ni, sanoat mahsulotlarining o'sish sur`ati 2017 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 100,5% ni tashkil qildi.

Bunda, Oltinsoy tumani bo'yicha umumiylajmi ishlab chiqarish hajmida kichik biznesning ulushi 100,0%ni (o'sish sur`ati 101,8%), Termiz tumanida 98,8%ni (104,2%), Boysun tumanida 99,9%ni (101,8%), tashkil etdi.

### Kichik tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi, umumiylajmi ishlab chiqarish hajmiga nisbatan (foizda)






## 2018 yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish – sanoat ishlab chiqarishi hajmlari o'shining omillaridan biridir**

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hajmlarining o'sishi bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'shining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

2018 yil yanvar-mart oylarida Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar tomonidan 138,9 mln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, bularning barchasi hududiy loyihalardan iborat.

### **Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**



### **Sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishini rag`batlantiruvchi omillar**

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash dasturlarini amalga oshirilishi, viloyat sanoatining rivojlanishiga imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, sanoatning yanada barqaror rivojlanishi uchun quyidagilar zarur:

- ilg'or mahalliy texnologiyalarni ishlab chiqish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish;
- Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirishda mahalliylashtirish darajasini to'xtatib turuvchi kamchiliklarni bartaraf etish hamda yangi ish o'rinalarini yaratishga to'sqinlik qiluvchi zarur tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar importini qisqartirish;
- mavjud imkoniyatdan kelib chiqib, ma'naviy eskirgan, ko'p harajatli texnologiyalar o'rniga yangi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib korxonaning to'liq quvvatda ishlashini ta'minlash;
- kichik biznes sub`ektlarining ishlab chiqarish faoliyatini har taraflama qo'llab-quvvatlash va rag`batlantirish.

**Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul:** Z.Turanazarov  
**Aloqa telefoni:** (376) 223-07-24